

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHARIDA ORTA OSIYODA TARIX FANINING
OQITILISHI.

THE TEACHING OF HISTORY IN CENTRAL ASIA IN THE LATE 19TH AND
EARLY 20TH CENTURIES.

ПРЕПОДАВАНИЕ ИСТОРИИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX — НАЧАЛЕ
XX ВЕКА.

Mirzaumarova Namuna Erkinjon qizi

Buxoro Xalqaro Universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi Magistratura 2-bosqich
talabasi

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O'rta Osiyoda tarix fanining o'qitilishi shakllanishi va mazmuni tarixchi-pedagog nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot rus-tuzem maktablari, shahar maktablari va gimnaziyalarda tarixning alohida fan sifatida kiritilishi, 1864 yilgi gimnaziya nizomi va 1908 yil Palen tekshiruv talablari, shuningdek jadid maktablari (usuli savtiya)da tarix kurslarining paydo bo'lishi, darsliklar va metodik yondashuvlar bilan bog'liq jarayonlarni yoritadi. Manba bazasi sifatida o'lkadagi rus maktablari tarmog'i va ularning o'quv tarkibini ko'rsatuvchi rasmiy ma'lumotlar, jadidchilikning ma'rifiy konsepsiyasi, Fitrat va Behbudiylarning tarix haqidagi qarashlari hamda o'qituvchilar qurultoylarining tavsiyalari jalb etildi. Maqola O'rta Osiyoda tarix ta'limi mustamlakachilik diskursidan milliy-ma'rifiy yondashuvga o'tish yo'lini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, tarix ta'limi, rus-tuzem maktablari, gimnaziya, jadid maktablari, usuli savtiya, darsliklar, metodika.

Abstract: This article analyzes, from a history-pedagogy perspective, how the teaching of history in Central Asia took shape and what it comprised in the late nineteenth and early twentieth centuries. The study examines the introduction of history as a distinct subject in Russo-native schools, municipal schools, and gymnasia; the requirements of the 1864 Gymnasium Statute and the 1908 Palen inspection; and the emergence of history courses, textbooks, and methodological approaches in Jadid (usul-i savtiya) schools. The source base includes official materials on the network of Russian-type schools in the region and their curricula, the educational concepts of the Jadid movement, the views of Fitrat and Behbudi on history, and recommendations of teachers' congresses. The article traces the transition of history teaching in Central Asia from a colonial discourse to a national-enlightenment approach.

Keywords: Central Asia, history education, Russo-native schools, gymnasium, Jadid schools,; usul-i savtiya, textbooks, methodology.

Аннотация: В статье с позиции историка-педагога рассматриваются становление и содержание преподавания истории в Средней Азии в конце XIX — начале XX вв. Анализируется введение истории как самостоятельного учебного предмета в русско-туземных и городских школах, а также в гимназиях; требования «Устава гимназий» 1864 г. и ревизии Палена 1908 г.; появление курсов

истории, учебников и методических подходов в джадидских школах (усул-и савтия). Источниковую базу составляют официальные материалы о сети русских школ региона и их учебных планах, просветительская концепция джадидов, взгляды Фитрата и Бехбуди на историю, а также рекомендации учительских съездов. В статье прослеживается переход преподавания истории в Средней Азии от колониального дискурса к национально-просветительскому подходу.

Ключевые слова: *Средняя Азия, преподавание истории, русско-туземные школы, гимназия, джадидские школы, усул-и савтия, учебники, методика.*

KIRISH

Tarix ta'limi mazmuni va metodikasi jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa kolonial siyosat va milliy uyg'onish to'liqlari ta'sirida keskin qayta shakllangan sohalardan biridir. Turkiston general-gubernatorligi davrida tarix fani birinchi bor tizimli ravishda rus tipidagi muassasalarda alohida predmet sifatida kiritildi; o'z navbatida, XX asr boshida jadidlar yangi maktablar orqali tarixni milliy-ma'naviy tarbiya vositasiga aylantirishga intildilar. Bu o'tish jarayonini aniq me'yoriy (1864 yilgi gimnaziya nizomi), tashkiliy (o'qituvchilar syezdlaridagi tavsiyalar) va darslik- metodika bazasi (Novitskiy, Solovyov, Fitrat, Behbudiy) bo'yicha qayta ko'rib chiqish bugungi tarix ta'limi uchun metodik saboqlar beradi. Shuningdek, maktab tarmoqlarining hududiy ijtimoiy tarkibi, moliyalanishi va o'quv rejalari bo'yicha farqlar tarix kurslarining mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatgan, bu esa "kolonial tarix" va "milliy tarix" o'rtasida didaktik ziddiyatlarni vujudga keltirgan.

Nazariy-metodologik asoslar. Tadqiqot tarix ta'limi didaktikasivamodernizatsiya yondashuvlariga tayanadi. Ta'lim sotsiogenezi asosida tarix kursining alohida fan sifatida shakllanishi ijtimoiy buyurtmaning mahsuli ekanligi tushuntiriladi. Mustamlaka ma'muriyati va milliy ma'rifatchilarning tarix faninig o'qitilishiga oid yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi. Diskursiv tahlil usulidan foydalanib, rus-tuzem va jadid maktablaridagi tarixiy jarayonlarning yoritilishi o'zaro qarama-qarshi, ammo o'zaro ta'sirda bo'lganini ko'rsatiladi. Manbashunoslik: rasmiy hisobotlar, nizomlar, o'qituvchilar qurultoylari bayonnomalari va darsliklar (Novitskiy, Solovyov), jadid adabiyoti (Fitrat, Behbudiy) qiyosiy o'rganildi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuni tadqiq qilishga ilmiy asos bo'ladigantadqiqotlarni shartli ravishda bir nechta yo'nalishga ajratdik. Birinchidan, madrasalarda tarix alohida fan sifatida o'qitilmagani, tarixning tizimli kursi rus tipidagi muassasalarda va keyinroq jadid maktablarida paydo bo'lgani haqidagi umumiy xulosa R. Kodirova ishida asosli ravishda ko'rsatilgan. U 1864 yilgi nizom bo'yicha gimnaziyalarda tarix soatlari, 1908 yilgi Palen reviziyasida qadimgi tarixga ortiqcha e'tibor, zamonaviy tarixga vaqt yetishmasligi, boshlang'ich bosqichda esa Novitskiyning "Qisqa rus tarixi" kabi darsliklardan foydalanilgani haqida dalillar keltiradi. Shuningdek, 1884 va 1910 yillardagi Toshkent xalq o'qituvchilari syezdlarida mahalliy-tarixiy materiallardan foydalanish tavsiya etilgani qayd etiladi.

Ikkinchidan, Buriyevning Kaspiyorti (Zakaspiye) mintaqasi bo'yicha ishida rus maktablari tarmog'ining shakllanishi, moliyaviy ta'minot, o'qituvchi maoshlari, konfessional maktablarda o'tilgan fanlar (axloq, hisob, geografiya, rus tili) va 1890-yillar oxirida tarmoqning kengayishi ko'rsatiladi. Bu ma'lumotlar tarix ta'limi institut-sional kontekstini tushuntiradi va kursning mazmuni hamda auditoriyasidagi tafovutlarni yoritadi.

Uchinchidan, jadidchilik tarixiy-ma'rifiy konsepsiyasining shakllanishi va ijtimoiy omillari Turdiyev tomonidan izchil ochib berilgan: usuli savtiya maktablari paydo bo'lishi, jadidlar tarix va geografiyani "milliy uyg'onish"ning tayanch fanlari sifatida asoslagani, Gaspiralinig g'oyalari ta'siri, jadid maktablarining XX asr boshida ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etgani ko'rsatiladi. Bu yondashuv tarix darsini shunchaki faktlar yig'indisi emas, balki fuqarolik ongini shakllantiruvchi predmet sifatida talqin qiladi.

To'rtinchidan, o'tish davri muammolarini ko'rsatadigan tadqiqotlar (Xolmo'minov) jadid maktablarining siyosiy bosim ostida yopilishi, 1917 yildan keyingi qayta tashkil etish urinishlari, 1917 yil may oyidagi musulmon o'qituvchilari qurultoyida milliy maktab konsepsiyasi va tarix (Turkiston va Rossiya tarixi)ni dasturga kiritish takliflari bilan jarayonning davomiyligini ko'rsatadi. Bu, tarix ta'limining XX asrning birinchi choragida yangi ideologik kontekstga moslashuvini ham tushuntiradi.

Beshinchidan, hududiy-historiografik ishlanmalar (Olimjon Ahmadovning Buxoro bo'yicha dissertatsiyasi) an'anaviy maktab va madrasalarda o'qitish amaliyotini, o'quv materiallari tarkibini, didaktik usullarni (hijo usuli, matn yodlash) va ularning modernizatsiya ehtiyojiga mos kelmagan jihatlarni ko'rsatadi. Bu fon, tarixning alohida kurs sifatida nega rus va jadid maktablarida shakllanganini mantiqan izohlaydi.

Asosiy qism: XIX asr oxiri — XX asr boshida O'rta Osiyoda ta'lim tizimi ikki asosiy yo'nalishda shakllandi: bir tomonda Rossiya imperiyasi ma'muriyati ostida tashkil etilgan rus tipidagi maktablar va gimnaziya, ikkinchi tomonda esa milliy uyg'onish ruhidagi jadid (yangi usul) maktablari. Tarix fani aynan shu ikkita oqim kesishgan nuqtada alohida predmetga aylandi: rus muassasalarida davlat dasturlari asosida, jadid maktablarida esa ma'rifiy-milliy tarbiyaga xizmat qiluvchi yo'nalishda kiritildi. Pedagogik jihatdan bu jarayon "ta'lim sotsiogenezi"ning klassik misolidir: ijtimoiy buyurtma o'zgargan sayin predmetning mazmuni, metodikasi va darslik tanlovi qayta belgilandi.

Rus tipidagi muassasalarda tarixning alohida predmet bo'lib shakllanishi o'ziga xos munosabatlarni yuzaga chiqardi. Rossiya imperiyasi Turkistonda o'ziga xos, tabaqaviy xarakterga ega ta'lim tizimini yo'lga qo'ydi va boshlang'ich (xalq, parish, shahar) maktablari, to'liqsiz o'rta (yuqori boshlang'ich, progimnaziya) va to'liq o'rta (gimnaziya, real maktab) bosqichlari. Tarix darsi dastlab shu zanjirda, ayniqsa gimnaziya va real maktablarda muntazam o'qitildi. 1864 yilgi "Gimnaziya va progimnaziya nizomi" tarixga ajratilgan haftalik va yillik soatlarni belgilab berdi. O'qitish 3-sinfda "xalq va buyuk xalqlar tarixi"dan boshlanib, yuqori sinflarda antik, o'rta asrlar, yangi davr va Rossiya tarixi bilan to'ldirilardi. Mazkur tizimda metodik erkinlik ham mavjud bo'lib, tarix o'qituvchilari o'z dasturini pedagogik kengashda tasdiqlata olar edi.

Boshlang'ich maktablar ilk davrda tarixni mustaqil fan qilolmagan, biroq o'qish darslarida rus tarixiga oid matnlar berilgan. XIX asr oxiri tomon boshlang'ich kurs 4 yilga uzaytirilgach, so'nggi sinfga qisqa "Rus tarixi" kiritilib, darslik sifatida F. Novitskiyning

“Qisqa rus tarixi” qoʻllanildi. Bu, tabiiyki, mahalliy tarixni emas, metropoliyaning narrativini markazga qoʻyar edi. Shu kamchilikni yumshatish maqsadida 1884 va 1910 yillardagi Toshkent xalq oʻqituvchilari syezdlarida tarix darslarida “mahalliy materiallardan foydalanish” tavsiya qilindi. 1908 yilda graflar Palen komissiyasi Turkiston muassasalarini tekshirib, tarix taqsimotida antik davrga ortiqcha, zamonaviy tarixga kam vaqt ajratilishini tanqid qildi. Bu hisobot oʻqitishdagi muvozanatniqayta koʻrish zaruratini koʻrsatdi va metodik muhokamalarni kuchaytirdi.

Rus-tuzem maktablari maqsadi mahalliy aholiga asosiy savod, rus tili va amaliy fanlarni berish, shu orqali maʼmuriy apparat uchun “mahalliy kadrlar” yetishtirish edi. Ularning oʻquv tarmoqlari Turkistonning turli viloyatlarida bosqichma-bosqich kengaydi. Bunda Kaspiyorti mintaqasi aniq raqamlar bilan kuzatiladi: 1880-1910 yillarda bir va ikki sinfli boshlangʻich muassasalar keskin koʻpaydi; 1914 yilga kelib 72 boshlangʻich oʻquv muassasasi roʻyxatga olingan, davlat tomonidan oʻqituvchilar maoshi, qoʻshimcha oziq-ovqat va uy-joy puli ajratilgani qayd etiladi. Shu bilan birga, bu tarmoqning tabaqaviyligi saqlangan: rus va yevropalik aholining qamrovi yuqori boʻlgan, mahalliy bolalar ulushi past boʻlib qolgan. Statistik maʼlumotlar taʼlim tarmogʻi hajmi va moliyalanishini, shuningdek, muassasalarning ijtimoiy tarkibini koʻrsatadi; bu hol tarix darsining mazmuni kim uchun va qaysi maqsadda berilganini ham talqin qilishga yordam beradi.

XX asr boshida jadidlar — usuli savtiya maktablari tarmogʻini ochib, diniy-maʼnaviy fanlar bilan birga dunyoviy fanlarni, jumladan tarixni ham oʻquv dasturiga kiritdilar. Manbalar Tashkent, Samarqand, Qoʻqon va boshqa shaharlarda 1890-yillar oxiri va 1910-yillarda yangi usul maktablari ochilganini, 1917 yilga kelib Turkistonda 100 dan ortiq shu tipdagi maktablarda 5 mingdan ziyod oʻquvchi tahsil olganini koʻrsatadi. Jadidlar tarixning jamiyat tarbiyasidagi oʻrnini aniq asosladilar. Fitrat tarixni “xalqning taraqqiyoti va tanazzuli sabablarini oʻrganuvchi fan” sifatida taʼriflaydi. Behbudiy esa tarix va geografiyani yuksak shaxs tarbiyasi uchun ajralmas deb sharhlaydi. Bu qarashlar sababli jadid maktablari oʻquv dasturlarida tarix koʻpincha “Islom tarixi,” “Paygʻambarlar tarixi,” “Turkiy qavmlar tarixi” kabi oʻquv matnlari bilan toʻldirilgan boʻlib, ular asosan milliy oʻzlikni uygʻotishga xizmat qilgan. Darsliklar mahalliy tillarda paydo boʻlib, qoʻlyozma va toshbosma koʻrinishida keng muomalaga kirdi.

Taʼlim jarayonidagi pedagogik usullar ham oʻzgarib, usuli savtiya orqali oʻqish-yozish tezlashtirildi, tarixiy matnlar oʻqish, savol-javob, matn tahlili, qisqa hikoya-xoʻtlash usullari bilan olib borildi. Jadidlar darslik yaratish va dastur tuzishda bir markazga boʻysunmagan va muallimlar amaliy ehtiyojdan kelib chiqib tanlov qilar, bu esa bir tomondan turtki, ikkinchi tomondan tartibsizlik elementlarini keltirib chiqargan.

Buxoro amirligi hududidagi anʼanaviy maktab va madrasalar tizimi asosan diniy mazmunga tayanib, boshlangʻich maktablarda oʻqish-yozish, Qurʼon qiroati, axloqiy matnlar bosqichma-bosqich oʻrgatilgan, darsliklar “Haftiyak,” “Tajvid,” “Sabot ul-ojizin,” “Guliston,” “Devon” kabi kitoblarga tayangan. Madrasalarda esa arab tili grammatikasi, kalom, fiqh, hadis, tafsir, mantiq va amaliy hisoblardan iborat klassik kurs hukmron boʻlgan, oʻqish koʻp hollarda sharh-hosiya matnlarida yillar davom etgan. Shu sabab tarix fani bu tizimda mustaqil predmet sifatida shakllanmagan, tarixiy bilimlar koʻproq diniy matnlar ichida epizodik tarzda berilgan. Jadid maktablari aynan ana shu “tarixni mustaqil

va maqsadli o'rganish" bo'shlig'ini to'ldirdi. Buxoro muhitida ham XX asr boshlaridan yangi usul maktablari ochilishi, o'qitishning sinf-dars tamoyiliga o'tishi va milliy tillardagi darsliklar ommalashishi, tarix mazmunining ham o'zbekcha-tojikcha ifodalarda kirib kelishiga yo'l ochdi.

Tarixni qanday o'qitish kerakligi masalasi rus gimnaziya-larida ham, jadid maktablarida ham keng muhokama qilindi. Imperiya doirasida og'zaki bayon va yodlashga tayanish tanqid qilinib, o'quvchini fikrlashga yo'naltiruvchi usullar taklif etildi; ammo konservativ tizimda yangiliklarni joriy etish oson kechmadi. Jadidlar esa tarixiy matnlarni o'quvchi uchun tushunarli tilga, amaliy hayotiy misollar bilan bog'lashni ustuvor deb bildilar. 1908 yil Palen komissiyasi hisobotidan keyin "antik tarixga ortiqcha, zamonaviyga kam vaqt" muammosi qayta ko'rilishi lozimligi ta'kidlandi. Toshkentdagi o'qituvchilar syezdlarida mahalliy materiallardan foydalanish tavsiyalari berildi.

Ta'lim tarmog'ining ijtimoiy-hududiy kesimi tarix o'qitilishining qamrovi va auditoriyasini tushunishda muhim. Kaspiyorti viloyatida. 1890-yillar oxiri — 1910-yillarda bir va ikki sinfli rus maktablari soni bir necha barobar ortdi; davlat o'qituvchilar maoshiga qo'shimcha mablag'lar ajratdi, ta'lim infratuzilmasi kengaydi. 1915 yil etnik tarkib statistikasi mazkur tarmoqning asosan rus-yevropalik aholi ehtiyojiga qaratilganini ko'rsatadi; shu bilan birga, mahalliy yoshlarning ham muayyan ulushi qamrab olingan. Bu sharoitda tarix darsi, tabiiy ravishda, Rossiya tarixi va umumiy tarix narrativlarini o'quvchilarga singdirish vositasiga aylangan.

Fevral inqilobidan so'ng Turkiston musulmon o'qituvchilari 1917 yil may oyida Toshkentda to'planib, "rus-tuzem maktablarini milliy maktablarga aylantirish" hamda o'quv dasturiga Turkiston tarixi bilan birga Rossiya tarixini ham kiritish taklifini ilgari surdilar. Bu milliy mazmunni kengaytirishga urinish edi. Biroq Oktyabr to'ntarishidan keyin maorif siyosati o'zgardi: yangi hokimiyat qadimgi (an'anaviy) maktablar va jadid muassasalarini bosqichma-bosqich yopib, sovet maktablari tarmog'ini barpo eta boshladi. Bu siyosat tarix ta'limi mazmunini ham ideologik qayta formatladi.

Xolmominov keltirgan hujjat va raqamlar jadid maktablari ustidan nazorat, 1911–1913 yillarda yopishlar, 1919 yildan savodsizlikni tugatish kampaniyalari, 1921–1923 yillarda byudjet, xo'jalik tangligi sabab tarmoqlarni qayta tashkil etish jarayonlarini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar fonida tarix darsi endi "sinfi-siyosiy tarbiya"ga yo'naltirildi; milliy mazmunning mustaqil shakllanishi cheklana bordi.

Tarix ta'limi bo'yicha bahslar umumjahon pedagogik fikrlar oqimi bilan hamohang kechdi: Ratsionalizm, ma'rifatchilik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv unsurlari o'quv jarayonini "matn yodlash"dan "tahlil va mustaqil fikr"ga og'dirish zaruratini ko'tardi. Bu, ayniqsa, jadidlar amaliyotida ko'rinadi: tarix o'qitish shunchaki voqealar xronikasini yodlash emas, balki milliy ong va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish vositasiga aylantirildi.

Xulosa. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O'rta Osiyoda tarix fani o'qitilishi ikki oqim ta'sirida shakllandi. Rus tipidagi muassasalarda tarix mustaqil, aniq rejalashtirilgan predmet sifatida shakllandi va asosan imperiya markaziy g'oyalari bilan to'ldirilgan darsliklar o'qitildi. Jadid maktablarida esa tarix darsi milliy-ma'rifiy maqsadga yo'naltirilib, o'quvchining "kimligimiz"ini anglashiga xizmat qildagan dalillar bilan boyitildi. 1917–1920

yillardagi siyosiy burilishlar ushbu yo'nalishlarni sovet maktabi standartiga birlashtirdi va tarix ta'limini ideologik mezonga bo'ysundirdi. Shunga qaramay, aynan shu davr tajribasi bugungi tarix ta'limi uchun uchta barqaror saboq qoldirdi:

1. tarixni o'qitishda mahalliy material va manbalarni tizimli kiritish;
2. metodikada matn yodlashdan tahlil, manbashunoslik va tanqidiy fikrga o'tish;
3. milliy va mintaqaviy tarixni jahon tarixiy jarayonlari bilan bog'lab, o'quvchining fuqarolik ongini rivojlantirish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Buriyev, Z. Activities of educational system in Turkestan during Russian empire // International Journal of History and Political Sciences. 2025. Vol. 5, Issue 1. - P. 40–44.
2. Kodirova, R. The History of the Emergence and Development of the Teaching of History in the Turkestan Education System // Zien Journal of Social Sciences and Humanities. 2025. Vol. 43 (April).
3. Turdiyev, B. S. The Position of the Turkestan Educational System in the Late 19th and Early 20th Centuries and the Significance of Jadidist Ideas in Its Development // Western European Journal of Historical Events and Social Science. 2024. Vol. 2, Issue 12. - P. 139–144.
4. Xolmo'minov, G. B.; Primova, M. Q. Sovet hokimiyatining an'anaviy ta'lim tizimini cheklash va tugatish siyosati // Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». 2022. № 5 (100), ч. 1. - P. 77–80.
5. Ahmadov, O. Sh. XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimi: PhD diss. (Pedagogika). Termiz, 2022.
6. Sadullayeva, V. I. Buxoro amirlarining ilm-fan va maorif sohasidagi siyosati (1756–1920 yy.): PhD diss. (Tarix). Buxoro, 2024. 145 b.
7. Rustamova, D.; Abdumutaliyeva, O. XVII–XIX asrning birinchi yarmida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar // International Scientific and Practical Conference “Actual Issues of Primary Education: Problems, Solutions and Development Prospects”. April 26, 2024. P. 590–592.